

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
2022- yil yanvar-dekabr**

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
16 181,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati:
80,8 %

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
3 534,5 mlrd. so'm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
12 647,0 mlrd. so'm

Joriy davrda 16 181,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 61,6 % i jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 38,4 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
1 465,2 mlrd. so'm

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:
40,0 mlrd. so'm

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:
318,8 mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
1 710,5 mlrd. so'm

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :
2 394,3 mlrd. so'm

Korxona mablag'lari:
3 825,6 mlrd. so'm


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
620,5 mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
5 806,6 mlrd. so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 35,9 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablag'lari hisobidan 14,8 %, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 23,6 %, Respublika byudjeti 9,0 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 10,6 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 3,9 %, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 0,2 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 2,0 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR
(JAMI HAJMDAGI ULUSHI, % DA)**





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	16 181,5	80,8	100,0
Respublika byudjeti	1 465,2	112,4	9,0
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	40,0	30,8	0,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	318,8	64,2	2,0
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	1 710,5	147,2	10,6
Korxona mablag'lari	3 825,6	92,1	23,6
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	620,5	75,2	3,9
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	5 806,6	60,7	35,9
Aholi mablag'lari	2 394,3	100,3	14,8




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Qashqadaryo viloyati	16 181,5	80,8	100,0
Qarshi sh.	2492,1	61,4	15,5
Shahrisabz sh. <i>tumanlar</i>	242,9	132,4	1,5
G'uzor	2635,8	49,4	16,3
Dehqonobod	337,8	89,9	2,1
Qamashi	280,6	51,0	1,7
Qarshi	783,8	104,7	4,8
Koson	606,1	126,8	3,7
Kitob	1265,8	103,1	7,8
Mirishkor	400,0	93,5	2,5
Muborak	3371,0	95,3	20,8
Nishon	1816,5	177,3	11,2
Kasbi	494,3	101,9	3,1
Ko'kdala	53,2	-	0,3
Chiroqchi	555,2	119,3	3,4
Shahrisabz	480,4	71,0	3,0
Yakkabog'	366,0	82,2	2,3

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning shahar va tumanlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Nishon tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 177,3 %, Shahrisabz shahrida 132,4 %, Koson tumanida 126,8 %, va Chiroqchi tumanida 119,3 % ni tashkil etdi.

Eng kam ko'rsatgich G'uzor tumaniga to'g'ri kelib bu ko'rsatgich 49,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Jamiga nisbatan % da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmi bo'yicha hududlar kesimida Muborak tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,8 % o'zlashtirildi.

Shuningdek keyingi o'rinda Qarshi shahrida – 15,5 % ni tashkil etmoqda.

G'uzor tumanida ushbu ko'rsatkich mos ravishda – 16,3 % ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 8 103,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 6 514,2 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga – 1 563,4 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 5 998,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,1 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 5 204,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 32,2 % ini tashkil etdi. Qolgan 30,7 %, yani – 4 978,2 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 3 526,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 21,8 % o'zlashtirilgan.

Boshqa yo'naliishlarga 3 333,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,6 % o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar		Investitsiya-lar	Kafolatlan-magan kreditlar
Qashqadaryo	7517,1	2335,7	5181,4	5806,6	2335,7	3470,9
Qarshi sh.	874,7	535,2	339,5	628,9	535,2	93,7
Shahrisabz sh. t u m a n l a r	92,5	12,5	80,0	92,5	12,5	80,0
G'uzor	1240,0	10,5	1229,5	1237,4	10,5	1226,9
Dehqonobod	13,8	2,3	11,5	13,8	2,3	11,5
Qamashi	26,5	3,1	23,4	24,3	3,1	21,2
Qarshi	374,0	65,2	308,8	368,9	65,2	303,7
Koson	207,8	21,7	186,1	170,1	21,6	148,5
Kitob	863,2	782,9	80,3	861,9	782,9	79,0
Muborak	160,0	131,5	28,5	160,0	131,5	28,5
Mirishkor	1920,8	523,4	1397,4	1909,7	523,4	1386,3
Nishon	1471,0	93,2	1377,8	93,5	93,2	0,3
Kasbi	209,5	154,2	55,3	209,5	154,2	55,3
Ko'kdala	1,6	-	1,6	1,6	-	1,6
Chiroqchi	15,5	-	15,5	14,1	-	14,1
Shahrisabz	25,7	-	25,7	1,0	-	1,0
Yakkabog'	20,5	-	20,5	19,7	-	19,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar




jamiga nisbatan, % da

Joriy davrda ham asosiy kapitalning katta qismi ishlab chiqarish sanoati o'zlashtirilib, 3 526,1 mlrd. so'mni yoki jami asosiy kapitalning 21,8 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni boshqa yo'nalishlar egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha – 3 333,1 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 20,6 % o'zlashtirildi.

Tog'-kon sanoati faoliyati bo'yicha – 3 311,3 mlrd. so'm, Sog'liqni saqlash faoliyati bo'yicha – 1 558,9 mlrd. so'm asosiy kapitalga o'zlashtirilgan.

Foydalanishga topshirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumi maydoni 1 153,0 ming kv.m bo'lgan 5370 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumi maydoni 557,6 ming kv.m bo'lib, 2363 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Chiroqchi tumanida ishga tushirilgan 130,6 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumi maydonning 11,3 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Kitob tumani egallagan bo'lib, jami ishga tushirilgan maydon 123,9 ming kv.m bo'lib viloyat bo'yicha jami umumi maydonning 10,7 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni:

(75) 221-32-47